

Bojxona Protseduralarini Soddalashtirishda Elektron Axborot Tizimlarini Qo‘Llashning Istiqbolli Masalalari

Rafikova Muattar Ravshanovna¹, Choriyev Ahrorjon Otabek o‘g‘li²

Annotatsiya: Ushbu maqolada bojxona sohasida elektron axborot tizimlarining bojxona protseduralarini soddalashtirishga bevosita ta‘siriga oid turli yondashuvlar haqida fikr va mulohazalar ko‘rib chiqiladi. Bunda asosiy e‘tibor raqamli texnologiyalar, bojxona sohasida amalda qo‘llanilayotgan dasturlar hamda shakldagi hujjatlar va bojxonani raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish va “E-Tranzit” AT va RW dasturlarining amaliyotga joriy etilish bosqichlariga qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, “Avto” YAAT, “E-Tranzit” AAT, NCTS axborot dasturi.

Hozirgi kunda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda zamonaviy, innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yaratilishi bilan birga mamlakatimizga yangi texnologiya, ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni shiddat bilan kirib kelishi, jahon iqtisodiyoti va tijorat tarmoqlarini jadal sur‘atlarda rivojlanishi, savdo munosabatlarining globalashuvi, iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish shu jumladan, bojxona tartib - taomillarini rivojlantirishda muayyan natijalarga erishish imkonini yaratdi. Bu esa barcha sohalardagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va ushbu sohada rivojlangan davlatlar bilan teng darajada raqobatlashish uchun xorijiy mamlakatlar qonunchilik tizimi bilan unifikatsiyalashtirish, qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish va takomillashtirish zamon talabi ekanligi yaqqol namoyon bo‘lib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida davlat iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish juda muhim ekanligini alohida ta‘kidlab o‘tgan.³

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bilan “*Iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohasida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish*” belgilangan.” Strategiyaning asosiy maqsadlaridan biri “*Korrupsiyaga qarshi kurashishga zamonaviy axborot, shu jumladan sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish*” belgilangan⁴.

Raqamli iqtisodiyot doirasida bojxona sohasini transformatsiya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-122 son Farmoni qabul qilindi. Bu farmon bilan “Bojxona ma‘muriyatchiligini yangi bosqichga olib chiqish, bojxona va yuk operatsiyalarini raqamli transformatsiya qilish orqali inson omilini keskin qisqartirish, bojxona sohasini ochiqlik, shaffoflik hamda ishonchlilik tamoyillari asosida korrupsiyadan holi tizimga aylantirish” asosiy maqsad qilib qo‘yilgan bo‘lib, farmonning 2-ilovasi bilan Yo‘l xaritasi tasdiqlangan. Ushbu yo‘l xaritasi bilan bojxona faoliyatini raqamlashtirish, elektron xizmatlarni ishlab

¹ Bojxona qo‘mitasi Bojxona instituti dotsenti

² Bojxona qo‘mitasi Bojxona instituti 4-kurs kursanti

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasidagi nutqidan

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 84-maqsadi.



chiqish, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini ishlab chiqish va vazirlik, idora va tashkilotlar bilan ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish vazifalari belgilangan. Ushbu yo'l xaritasining 22-bandi bilan *“Respublikaga kirib kelayotgan transport vositalariga tegishli ma'lumotlarni, shuningdek, chegara o'tkazish punktlarida to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlarni oldindan avtomatik hisoblash va to'lash jarayonlarini raqamlashtirish”* va *“Temir yo'l transportida tashiladigan tovarlar bo'yicha dastlabki ma'lumotlarni elektron ravishda bojxona organiga taqdim etish”* vazifalari qo'yilgan⁵.

Yuqoridagi vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida, 2022-yilda “E-Tranzit” avtomatlashtirilgan axborot tizimi avtomobil transporti uchun mo'ljallangan dasturi amaliyotga joriy etildi. 2022-yil 1-apreldan boshlab, respublikaning avtotransport chegara bojxona postlarida va 2023-yil avgust oyida Temir yo'l transporti orqali tashilayotgan tovarlar bo'yicha dastlabki axborot “E-Tranzit” AT va RW avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali bojxona organlariga taqdim etilib boshlandi.

“E-Tranzit” avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqishda rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bojxona tranzitini samarali tashkil etish xalqaro savdo tovarlarini yetkazib berishning butun zanjiri bo'ylab barcha mamlakatlar bojxona xizmatlarini raqamlashtirish va axborot almashishini taqozo etadi.

Misol uchun, Yevropa Ittifoqida Yangi Kompyuterlashtirilgan Tranzit Tizimini (New Computerised Transit System - NCTS) joriy qilingan bo'lib, u 2006-yil 1-apreldan boshlab barcha vakolatli yuk tashuvchilar uchun undan foydalanish majburiy hisoblanadi. Bundan tashqari, Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya, Shveysariya, Turkiya va Shimoliy Makedoniya kabi Yevropa erkin savdo uyushmasi mamlakatlari ushbu tizimga ulangan. Markaziy Amerikada esa tranzitni nazorat qilish uchun TIM-Xalqaro tovarlar tranziti (ispancha: Tránsito Internacional de Mercancías) tizimi joriy qilingan. Ushbu tizimdan Meksika, Nikaragua, Gonduras, Salvador, Gvatemala, Kosta-Rika va Panamada ham foydalaniladi. Qo'shni davlat hisoblangan Rossiya Federatsiyasida AS KTT-2, UAIS TO, KPS “Транзитные операции”, KPS “Совершение операций”, AS “PP” kabi tranzit yuklarni kuzatish uchun bir nechta tizimlar qo'llaniladi⁶.

“E-Tranzit” avtomatlashtirilgan axborot tizimining maqsadi, O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kiriladigan hamda O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzda olib o'tiladigan chet el tovarlarning jo'natuvchi bojxona organidan tovar kelib tushadigan bojxona organigacha nazoratini amalga oshirish uchun deklarant tomonidan bojxona organiga taqdim etilgan tranzit deklaratsiyasini elektron ko'rishda rasmiylashtirishdan iborat.

Ushbu avtomatlashtirilgan axborot tizimi 2022-yildan boshlab mamlakatning barcha bojxona postlarida amaliyotga joriy etilgan bo'lib, o'tgan qisqa vaqt ichida u bojxona faoliyatida o'zining mustahkam o'rniga ega bo'ldi. Bugun ushbu tizimsiz bojxona nazoratini tashkil etish jarayonini tasavvur etish qiyin. Chegara bojxona postlarida bu dasturni qo'llash orqali vujudga kelayotgan tirbandliklar soni sezilarli darajada kamaygan desak xato bo'lmaydi.

“E-Tranzit” avtomatlashtirilgan axborot tizimi bugungi kunda xalqaro tashuvlarni amalga oshirishini bojxona organlari tomonidan nazorat qilishda asosiy elektron dastur sifatida qaralmoqda. Ushbu tizim hozirgi zamon talablariga mosligi, interfeys jihatdan mukammalligi va boshqa dasturlar bilan integratsiya qilish imkoniyati borligi ushbu dasturni hozirgi zamonaviy dasturlar qatoriga kiritishimizga asos bo'ladi. Ushbu tizim tashqi foydalanuvchilarga ham juda qulay bo'lib, ular deklaratsiyani to'ldirishda “USB-TOKEN” himoyalangan elektron kalit yoki jismoniy va yuridik shaxslarning “ONEID” yagona identifikatsiya login va paroli orqali dasturga kirib, bojxona organlariga deklaratsiya yuborishlari mumkin.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PF-122-son Farmoni bilan tasdiqlangan Yo'l xaritasining 22-bandi.

⁶ M.M.Xamrayev “E-Tranzit” avtomatlashtirilgan axborot tizimining bojxona organlari tizimida tutgan o'rni va ahamiyati. Ilmiy maqolasi. 3-bet.



Bojxona tranziti masalasiga O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida ham alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, u Bojxona kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida o‘z aksini topgan. Bu jarayon mamlakat hududidan uchinchi davlatlarga o‘tayotgan tranzit yuklar yoki chegara va ichki bojxona postlari orasida harakatlanuvchi tashqi savdo yuklari ustidan bojxona nazoratini o‘rnatish tamoyillari asosida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining «Transport vositalari va ularda tashiladigan yuklarni elektron ro‘yxatga olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2019 yil 6 iyundagi 189-sonli buyrug‘iga binoan mazkur jarayonda yuklarni yetkazib berishni nazorat kitobi (YUBNK) elektron yuritilishi bo‘yicha yo‘riqnoma tasdiqlangan.

2022 yilga qadar YUBNK yuritish va hisobga olish jarayoni barcha chegara bojxona postlarida “Avto” yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (“Avto” YAAT) yordamida amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, uning faoliyati axborot jarayonlarini avtomatlashtirish asosida qaror qabul qilishni ta‘minlashga qaratilgan edi.

Shu bilan birga, o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘tgan 15 yildan ko‘proq vaqt ichida avtotransport vositalarida tashiluvchi tashqi savdo yuklari ustidan bojxona nazoratini tashkil etishda “Avto” YAAT muhim instrument bo‘lib xizmat qilganiga qaramasdan, uning yordamida bojxona tranzitini amalga oshirishda bir qator muammolar paydo bo‘lmoqda⁷.

Birinchidan, “Avto” YAAT imkoniyatlari bojxona xizmati rahbariyati tomonidan olib borilayotgan axborot-texnik siyosatining “ikki ustun” tamoyili talablariga javob bermaydi. Jahon bojxona Tashkilotining 2005 yil 23 iyundagi sessiyasida barcha a‘zolari tomonidan qabul qilingan “Global savdoni yengillashtirish va xavfsizligini ta‘minlashning hadli standartlari” (Framework Standards for Secure and Facilitating Global Trade) ikki asosiy ustunga tayanadi:

- a) boshqa mamlakatlar bojxona ma‘muriyatlari bilan hamkorlik;
- b) bojxona xizmati va biznes hamjamiyati o‘rtasidagi hamkorlik.

Ushbu tamoyil asosida mamlakatimiz bojxona xizmati rahbariyati barcha axborot tizimlarining ikki moduli: bojxonachilar foydalanishi uchun modul bilan uzviy bog‘liqlikda ishlovchi tadbirkorlar foydalanish uchun modulga ega bo‘lishi talab etiladi. “Avto” YAATda TIF ishtirokchilarining roli yo‘qligi, tizimdan faqat bojxona organlari foydalanishi, qo‘mita rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan “ikki ustun” tamoyili talablariga javob bermaydi. Ushbu tizimda faqatgina bojxona organlari YUBNK kitobchasini to‘ldirishi va nazoratga qo‘yishi mumkin hisoblanardi. Bu esa hozirgi kunda tashqi savdo yuklari jadal rivojlanayotgan bir paytda tadbirkorlik subyektlariga va Yangi O‘zbekistonning bojxonasiga talaygina muammo va qiyinchilar tug‘dirishi mumkin edi.

⁷ A.A.Saidov, A.I.Do‘smuhamedov, E.R.Boqiyev. “e-Tranzit” avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi bojxona qo‘mitasi Bojxona instituti. Toshkent. 2024 yil. — 100 b.





1-rasm. “E-Tranzit” avtomatlashtirilgan axborot tizimining ishlash mexanizmi

Ikkinchidan, “Avto” YAAT texnik imkoniyatlari bugungi tashqi savdo aylanmasi miqdorlariga to‘liq javob bermay qoldi. Shu sababli keyingi yillarda chegara bojxona postlarida yuk tashuvchi avtotransport vositalari tirbandliklari tez-tez kuzatilmoqda. Bu tirbandliklarni kamaytirish, chegarada bojxona nazoratini soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlari va tovarlarga nisbatan xavf profillarini joriy etish orqali chegarada bojxona nazorati samaradorligini oshirish uchun yangi zamonaviy talablarga mos tizim ishlab chiqish bojxona organlari oldida turgan muhim vazifa hisoblanar edi. “E-Tranzit” avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish yuqoridagi muammo va kamchiliklarga yechim hisoblanadi.

Uchinchidan, “Avto” YAAT bojxonada Xavfni boshqarish tizimi bilan o‘zaro hamkorlikda ishlamaydi va va xavf profillari yordamida qaror qabul qilish imkonini bermaydi. Respublikamizga tovar oqimi kirib kelishi jadal rivojlanayotgan bir paytda bojxonada xavf profillari va indikatorlarini qo‘llab, tadbirkorlarni va tovarlarni profillarga ajratib bojxona nazoratini qilmasak chegarada tirbandliklar va shunga o‘xshash muammolar kelib chiqadi. Bu esa bojxona nazorati samaradorligiga katta salbiy ta’sir etadi.

To‘rtinchidan, “Avto” YAAT tadbirkor yoki yuk tashuvchi bilan bevosita muloqotni va zarur hujjatlarni qog‘oz ko‘rinishda taqdim etishni talab etadi. “Avto” YAAT da tadbirkor va tashuvchilar bilan online chat xizmatlari mavjud emas edi.

Beshinchidan, “Avto” YAAAT tizimida yagona to‘lov tizimi mavjud emasligi, ya’ni chegarada to‘lanishi lozim bo‘lgan mavjud yig‘imlarni ruxsat beruvchi davlat organlarining hisob raqamlariga alohida-alohida amalga oshirilishi kabi ortiqcha amallarning mavjudligi. Bu amaliyot bojxona nazorati unumdorligiga ta’sir ko‘rsatib, asosiy vaqt yig‘imlarni xodimlar tomonidan qo‘lda hisoblanishiga va to‘g‘ri undirilishini nazorat qilish uchun ketgan edi.

Yuqorida keltirilgan va yana keltirilmagan boshqa bir qator sabablar “Avto” YAAT imkoniyatlarini e-TIR, NSTS kabi boshqa xalqaro axborot tizimlari bilan qiyosiy tahlil qilish va mazkur muammolar yechimi yuzasidan qaror qabul qilish dolzarb ekanligini ta’kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muxtorov I.M., Dusmuxmedov A.I., Saidov A.A. Avtomatizatsiya tamojennogo tranzita: ot opyta Yevropeyskogo soyuza k praktike Respubliki Uzbekistan // Nauchnyy jurnal “Akademicheskiiy vestnik Rostovskogo filiala Rossiyskoy Tamojennoy Akademii” № 2(51), 2023. S. 45–51. <https://elibrary.ru/item.asp?id=54250106/>.



2. Dushmanamedov A., Bokiev E, Saidov A. The study of the transit system of the European Union and the features of the information system "e-Transit" of the Republic of Uzbekistan. // Scientific journal " Digital transformation and artificial intelligence ", Tashkent, 2023. № 3(5), pp.148–153. Retrieved from <https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/issue/view/v1i3>.
3. A. A. Saidov, A. I. Dushmanamedov, E. R. Boqiyev. "e-Tranzit" avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanma
4. <https://www.wcoomd.org/>
5. <https://customs.uz/uz/>

